

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 3733,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 13,7 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1394,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,4 %), qishloq aholisi soni 2339,1 ming kishini (62,6 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart


- Aholi soni **13,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **18,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- 3,7 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlariда **6,0 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Samarqand viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)




Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shaharida 531,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %ni) va Urgut tumanida 483,9 ming kishini (13,0 %), aksincha eng kam aholi soni Kattaqo'rg'on shaharida 87,0 ming kishini (2,3 %) va Tayloq tumanida 192,4 ming kishi (5,2 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Urgut va Jomboy tumanlarida 2,5 %ga, Ishtixon tumanida 2,1 %ga, Oqdaryo, Bulung'ur, Payariq, Qo'shrabot, Pastdarg'om, Tayloq va Kattaqo'rg'on tumanlarida 2,0 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Samarqand shaharida 1,3 %ni, Narpay tumanida 1,7 %ni, Samarqand va Nurobod tumanlarida 1,9 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 18,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 20,8 promille bo'lган).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Kattaqo'rg'on shahrida (20,2 promilledan 22,3 promillega) va Samarqand (16,2 promilledan 17,0 promillega) shahrlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Oqdaryo (21,2 promilledan 18,9 promillega) va Nurobod (16,7 promilledan 14,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tuman va shaharlar bo'yicha tug'ilganlar soni yanvar-mart (kishi)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati %
Viloyat	18 779	18 434	98,2
Samarqand sh.	2 088	2 226	106,6
Kattaqo'rg'on sh.	428	479	111,9
<i>Tumanlar:</i>			
Oqdaryo	783	714	91,2
Bulung'ur	939	903	96,2
Jomboy	949	910	95,9
Ishtixon	1 306	1 299	99,5
Kattaqo'rg'on	1 258	1 188	94,4
Qo'shrabot	775	736	95,0
Payariq	1 398	1 445	103,4
Pastdarg'om	1 529	1 497	97,9
Paxtachi	722	712	98,6
Samarqand	1 256	1 178	93,8
Narpay	830	744	89,6
Nurobod	743	678	91,3
Tayloq	949	901	94,9
Urgut	2 826	2 824	99,9

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan tumanlarda sezilar darajada o'sish kuzatilmadi, aksincha sezilarli darajada kamayishi Qo'shrabot (5,7 promilledan 3,3 promillega), Kattaqo'rg'on shaharida (7,1 promilledan 5,2 promillega), Samarqand shaharida (6,6 promilledan 4,9 promillega) va Payariq (5,9 promilledan 4,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Tuman va shaharlар bo'yicha o'lганлар сони январ-март (киси)


	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati %
Viloyat	4 825	3 727	77,2
Samarqand sh.	847	641	75,7
Kattaqo'rg'on sh.	150	111	74,0
tumanlar			
Oqdaryo	199	151	75,9
Bulung'ur	207	202	97,6
Jomboy	203	161	79,3
Ishtixon	264	223	84,5
Kattaqo'rg'on	274	216	78,8
Qo'shrabot	173	103	59,5
Payariq	342	243	71,1
Pastdarg'om	403	298	73,9
Paxtachi	207	154	74,4
Samarqand	363	294	81,0
Narpay	236	191	80,9
Nurobod	183	133	72,7
Tayloq	216	184	85,2
Urgut	558	422	75,6

Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,4 %i o'simtalardan, 6,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,8 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 125 nafarni tashkil etib, ularning 63,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 12,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 5,6 %i baxtsiz hodisa va 1,6 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 14,7 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 14,0 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
14,7 ming kishi

Demografik holat

Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 6,0 ming nikoh va 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,5 va 1,0 promilleni tashkil etdi.



Tuman va shaharlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni yanvar-mart (birlik)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati %	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati %
Viloyat	5 881	5 998	102,0	898	915	101,9
Samarqand sh.	452	492	108,8	273	250	91,6
Kattaqo'rg'on sh.	122	118	96,7	40	30	75,0
tumanlar:						
Oqdaryo	244	263	107,8	36	42	116,7
Bulung'ur	274	334	121,9	44	45	102,3
Jomboy	315	344	109,2	33	31	93,9
Ishtixon	414	428	103,4	54	49	90,7
Kattaqo'rg'on	375	394	105,1	55	56	101,8
Qo'shrabot	128	102	79,7	23	23	100,0
Payariq	383	450	117,5	27	64	237,0
Pastdarg'om	640	589	92,0	48	68	141,7
Paxtachi	262	252	96,2	20	24	120,0
Samarqand	260	299	115,0	82	99	120,7
Narpay	319	281	88,1	36	36	100,0
Nurobod	207	208	100,5	21	17	81,0
Tayloq	375	347	92,5	38	30	78,9
Urgut	1 111	1 097	98,7	68	51	75,0

Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,0 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,4 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	3,6	2,6
Ko'chib ketganlar	4,6	3,9
Migratsiya saldosi	- 1,0	- 1,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Kattaqo'rg'on shaharida (minus 0,2 ming kishi), Oqdaryo, ishtixon, Payariq va Urgut tumanlarida (minus 0,2 ming kishi) Samarqand shaharida (plus 0,2 ming kishi) qayd etildi.